



# FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG‘ONA VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI  
2024-YIL YANVAR-AVGUST  
OYLARI  
(DASTLABKI MA'LUMOT)



**Tel.: 73-241-96-28**  
**[www.farstat.uz](http://www.farstat.uz)**



## Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-sentabr holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 6 573 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 741 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 11,3 %i) Qo'qon shahriga, 708 tasi (10,8 %) Farg'ona shahriga, 585 tasi (8,9 %) Marg'ilon shahriga, 496 tasi (7,5%) Uchko'prik tumaniga va 388 tasi (5,9 %) O'zbekiston tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2024-yil 1-sentabr holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, % da
<b>Jami:</b>	<b>6573</b>	<b>928</b>	<b>100,0</b>
Farg'ona sh.	708	94	10,8
Qo'qon sh.	741	67	11,3
Quvasoy sh.	195	33	3,0
Marg'ilon sh.	585	81	8,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	303	39	4,6
Qo'shtepa	264	70	4,0
Bag'dod	329	59	5,0
Buvayda	264	35	4,0
Beshariq	190	24	2,9
Quva	296	49	4,5
Uchko'prik	496	57	7,5
Rishton	343	64	5,2
So'x	199	22	3,0
Toshloq	276	44	4,2
O'zbekiston	388	62	5,9
Farg'ona	263	45	4,0
Dang'ara	378	33	5,8
Furqat	161	35	2,4
Yozyovon	194	15	3,0



## Fargʻona viloyati sanoatining asosiy koʻrsatkichlari


Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2024-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 25 166,4 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi \*107,9% ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik koʻrsatkichlari oʻsish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga oʻsayotganligini koʻrsatadi.


## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyatida 2024-yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 6 168,1 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.




2024-yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.



*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 23 130,2 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 91,9 % ni, tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **77,2 mlrd soʻmni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ini tashkil etdi.



### Yanvar-avgust

2022-y	51,8 mlrd. soʻm
2023-y	103,3 mlrd. soʻm
2024-y	77,2 mlrd. soʻm

### FHI, % da

2022-y	19,7%
2023-y	194,6%
2024-y	67,5 %

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **23 130,2 mlrd soʻmni** yoki jami sanoat mahsulotlarining **91,9 %** ini tashkil etdi.

### Yanvar-avgust

2022-y.	17 256,9 mlrd soʻm
2023-y.	18 549,1 mlrd soʻm
2024-y	23 130,2 mlrd soʻm

### FHI, % da

2022-y.	105,1 %
2023-y.	102,6 %
2024-y	91,9 %



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'lish sur'ati  
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

Dizel yoqilg'isi		Avtomobil benzini		Klinker sement	
2024	89,6	2024	87,3	2024	48,1
2023	146,1	2023	169,0	2023	27,2
2022	80,3	2022	85,1	2022	81,5
O'simlik yog'i (tozalangan)		Portlandsement		Yumshoq bug'doy va spelta uni	
2024	29,2	2024	58,8	2024	100,4
2023	44,4	2023	81,7	2023	73,9
2022	89,8	2022	102,8	2022	89,3
Neft bitumi		Aroq ming litr (100% spirt)		Uzum vinosi	
2024	84,9	2024	98,4	2024	2,3m
2023	196,5	2023	97,6	2023	86,1
2022	58,7	2022	60,3	2022	62,8
Karbamid		Paxta chigiti		Paxta linti	
2024	93,9	2024	94,0	2024	142,7
2023	103,1	2023	118,1	2023	97,3
2022	96,7	2022	164,5	2022	193,8

2024-yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 196,9 ming tonna avtomobil benzini (2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 87,3%ni tashkil etgan), 264,2 ming tonna dizel yoqilg'isi (89,6%ni), 94 335,5 tonna paxta iplari mahsulotlari (117,9%ni) hamda 10 802,7 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar 54,0 % ni tashkil etgan) ishlab chiqarilgan.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	225,6	196,9	-28,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	153,3	153,8	0,5
Paxta chigiti, ming t	66,8	62,7	-4,1
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	5,0	1,4	-3,6


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 9,3 % (2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,3%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 34,3% (2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,7 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,6% (2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,7%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,3 % (2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,9 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 %ni (2023-yilning yanvar-avgust oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,6 % (17,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,7% (23,2%) va quyi texnologiyalisi – 52,1% (52,4%)ni tashkil etdi.





## Metallurgiya sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati 198,0 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,9%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 113,3 % ni tashkil etgan.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati 140,6 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8% ni etdi o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 87,8 % ga ko‘paydi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 99,7 % ni ishlab chiqarish hajmi esa 2 857,6 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 13,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,6 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,1 %ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,8 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 3 022,9 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,2 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,9 martaga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 148,8 mlrd so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-avgust oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 129,8 % ni tashkil etdi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 10,3 % ga o'sgan holda ishlab chiqarish hajmi 6 288,8 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 92,1 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,8 %, fizik hajm indeksi 117,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 804,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 134,8 % ni tashkil etgan.




## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,2 % ni, fizik hajm indeksi 93,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 369,2 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,6 % ni fizik hajm indeksi esa 101,6 % ni tashkil etgan.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,3 % ni, fizik hajm indeksi 107,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 230,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni fizik hajm indeksi esa 79,2 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 % ni, fizik hajm indeksi 164,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 976,1 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni fizik hajm indeksi esa 136,4 % ni tashkil etgan.

### Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 126,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 344,3 mlrd so'mni tashkiletdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 188,6 % ni tashkil etgan.




### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 110,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 666,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni fizik hajm indeksi esa 115,3 % ni tashkil etgan.




### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 %, fizik hajm indeksi 28,2 % ga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 852,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni fizik hajm indeksi esa 121,4 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 743,4 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,9 % ni) tashkil etadi.


2024-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 605,3 mlrd so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust	2024- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt s	234,1	228,6	-5,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1083,5	848,9	-234,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 215,6 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust	2024- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	11,7	26,3	14,6
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	13,5	20,8	7,3


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 26,3 mlrd so'm yoki 2,3 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 20,8 mlrd so'm va 54,4 % ga ko'paygan.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6 018,7 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 24,2 % ni tashkil etdi.

### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023-yil yanvar-avgust



2024-yil yanvar-avgust



### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd so‘m)da

2023-yil yanvar-avgust




2024-yil yanvar-avgust



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar-avgust oylarida (jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 914,2 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,3 % ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi koʻpayotganligini bildiradi.

**Jami sanoat  
mahsulotlari hajmidagi  
ulushi,  
% da**



**Kichik biznes subyektlari  
tomonidan ishlab chiqarilgan  
sanoat mahsulotlari hajmi  
(mlrd soʻm)**

